

## JADIDCHILIK HARAkatIDA XOTIN-QIZLAR TA'LIMIDAGI ISLOHATLARI

*Yusupova Laylo Umidbek qizi*

*Guliston davlat universiteti*

*Psixologiya va ijtimoiy fanlar fakulteti*

*Tarix yo'nalishi talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada, XIX asrning oxiri XX asr boshlarida jadidlarning xotin-qizlar huquqlari, imkoniyatlari ularga yaratilgan ta'lim sharoitlar haqida shuningdek o'sha davr bilan hozirgi davr o'rtasidagi tafovutlar va o'xshashliklar haqida bir qancha ma'lumotlar keltirib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** Jadidlar, Yahyo Yo'ldoshev, Sadridin Ayniy, “usuli jadid”, Turkiston, ayollar ta'limi, Behbudiy, Fitrat, Munavvar qori, Abdulla Avloniy.

Jadidlar XIX asr oxiri XX asr boshlarida Turkistonda xotin-qizlarning savodxonlik darajasi juda ham past ekanligi, ular faqatgina otinoyilar o'z uylarida ochgan uy maktablarida o'qib, o'qish davomida 3-4 tagina diniy suralarni yodlab, so'ng ular uy ishlari bilan shug'ullanishi, nari borsa tikish –bichishni o'rganishi, keyin esa jamiyatda qattiq qonun-qoidaga aylangan erta oila qurish majburiyatini olib, shu bilan bir umr to'rt devor ichida yashashlarini qattiq tanqid qilib, erkak va ayollar teng haq-huquqga ega ekanliklari, bola tarbiyasi bilan asosan onalar tarbiyalaganliklari bois, millat taqdiri uchun ularning bilim savyasini ko'tarish va yangi maktablar tashkil etishni yoqlab chiqdilar.

Jadid ziyolilaridan Yahyo Yo'ldoshev o'zining xotiralaridan birida Sadridin Ayniy bilan qilgan suhbatini yodga olar ekan, shunday yozadi:–“Sadridin Ayniy Buxoro taraqqiyparvarlaridan bo'lib, oilamizning eng yaqin kishilari, qo'shnilarimiz Porsoxo'ja , Mirzo Izzatullo, Ahmadjon Maxsumlarning aytishicha, domla Buxoro madraslaridan birida ta'lim olgan, so'nggi yillarida shaharning ma'rifatparvar kishilariga bosh bo'lib, ular bilan tez-tez suhbatlashib turganlar, bu gurungda shoir va tarixchi, musiqa muxlisi va kitob shaydosi Sharifjon Maxsum, Hamdiy taxallusi bilan she'r yozadigan Ahmadjon Maxsum, Buxoroda qizlar va o'g'il bolalar uchun yangi usulda maktab ochib, o'zbek tilida birinchi marta ibtidoiy maktab o'quvchilari uchun o'qish kitobini yaratgan Mirzo Abduvohid–(Munzim) va boshqlar ishtirok etgan”. Shu kabi ma'lumotlarga ko'ra bu maktab Buxoroda eski usuldagi diniy maktablaridan farqli ravishda o'qishni ham yozishni ham o'rgatar, asosan dunyoviy fanlar haqidagi dastlabki bilimlarni berar edi, qizlar maktabida ham dunyoviy fanlar o'rgatilgan. Bunday ma'rifiy ishlarning boshida Sadridin Ayniy va boshqa jadid ma'rifatparvarlarining xizmatlari katta hisoblanadi.

Jadidlar farzandlar tarbiyasi ayollar qo‘lida ekanligi alohida ta’kidlaganlar, Sadridin Ayniy bu haqida quydagi fikrni bildirgan edi: “Agarda xotun kishi tarbiyat topgan, savodli bo‘lsa, farzandini ham tarbiyat qilib taraqqiylik odami qiladur”. 1910-yili bu “usuli jadid”, ya’ni jadid maktablari yopildi. Ammo bu maktablarning yopilishi jadidlik harakatini susaytirmadi, aksincha yanada rivojlanishi uchun xizmat qildi. Bundan “ko‘rinib turibdiki, jadidlik keng ijtimoiy masalalar va ma’rifatparvarlik g‘oyalari ilgari surish maqsadida shakllangan ijtimoiy-falsafiy yo‘nalish bo‘lgan”. Ammo jadidlik ta’limotiga munosabat faqatgina mustaqillik yillarida o‘z mavqegini tiklab bordi. Jadidlarning asosiy maqsadi dunyoviy ilmlarni egallagan yoshlarni tarbiyalash va ularning ma’naviy ongini oshirish, o‘z vazifasini o‘tay olmay qolgan eskicha ta’lim tizimiga yangicha innovatsion g‘oyalarni singdirish edi. Bundan tashqari ular ijtimoiy hayot tarzini zamonaviy hayotga moslashtirish, milliy va zamonaviy armiyani joriy etish, diniy va dunyoviy, axloqiy normalarni inobatga olgan holda yangi qonunchilik konsepsiyasini ishlab chiqish va joriy etish, davlatning boshqaruv tizimini isloh etish, hududiy tarqoqlikni bartaraf etish chora-tadbirlarini ishlab chiqish, jamiyat rivojlanishining barcha sohalari uchun milliy kadrlarni tayyorlash, davlatlar bilan diplomatik aloqalarni va tashqi siyosat konsepsiyasini o‘rnatish kabi bir qancha masalalarni ilgari surdi.

XIX asrning ikkinchi yarmida Turkistonda vujudga kelgan ijtimoiy-falsafiy tafakkur taraqqiyotining o‘ziga xos xususiyati shundaki, A.Donish, Furqat, Muqimiy singari mutafakkirlar, Ibrohim Mo‘minov ta’kidlaganidek, adolatning va inson aqlining tantanasiga qarshi tanqid bayrog‘ini ko‘tarib chiqdi. Bu bayroqni keyinchalik Behbudiy, Fitrat, Munavvar qori, Abdulla Avloniy, Hamza va Cho‘lpon kabilar yangi bosqichga ko‘tardi. “XX asrning avvalida jahon miqyosida yuz bergan ijtimoiy-siyosiy jarayonlardagi voqealar, 1905-yilgi rus revolyusiyasi, Turkiston xalqlarining ongida demokratik tushunchalarning shakllanishi va rivojlanishiga katta turtki bo‘ldi. Bunday siyosiy va iqtisodiy o‘zgarishlar ijtimoiy tafakkurning taraqqiyotiga ta’sir etmay qolmadi. Yashirin bildirilgan demokratik talablar, ma’rifatparvarlik va vatanparvarlik g‘oyalari tobora oshkora bayon etiladigan va ayrim kishilarning hayot tarzi va maqsadlariga aylangan edi. Ana shu davrda shakllangan jadidlar ikki tomonlama tanqid ostida bo‘lgan bo‘lsa, keyinchalik Oktyabr to‘ntarishidan so‘ng jadidlar “qizil zambaraklar”dan o‘qqa tutildi”, demak ilg‘or fikrli jadidlar o‘z davrining qurboniga aylandi.

Jadidlar davri bizning ayollarimiz uchun rivojlanishga qo‘yilgan ilk qadam bo‘ldi desak adashmagan bo‘lamiz. Bu davrda qilingan barcha ishlar, islohotlar xotin-qizlarimizning taraqqiyoti, rivojlanishi, ta’lim olishi uchun yaratilgan imkoniyatlar darvozasi bo‘di. Bugungi kunda ham mamlakatimizda xotin-qizlar huquqlari doim oldinda turadi. Xotin-qizlarga berilgan imkoniyatlarning cheki-chegarasi yo‘q. Jadidlar

odamlar ongida o‘ziga xos o‘zgarish yasashning uddasidan chiqa bildi. Jamiyatni o‘zgartirish konsepsiyasini yarata oldi va konsepsiya barcha masalalarni qamrab oldi.

Yangi jadidlar adabiyoti, yangi dramaturgiyaga asos soldi. Turkistonda birinchi teatr faoliyati yo‘lga qo‘yildi. Ta’limning yangi shakllarini yaratdi. Ular ehtimol, kichik ko‘rinishda bo‘lgandir, ammo, butunlay yangi madaniyat yaratdi. Odamlar ongida ayollarga nisbatan kichik bo‘lsa-da, o‘zgarish yasay bildi, chunki asarlarida ayollarning jamiyatni rivojlantirishdagi ahamiyati haqida fikr yuritiladi. Albatta, birdan paranjini tashlab, yuzni ochib, jamiyat ishlarida ishtirok etishga da’vat etmaydi. Abdurauf Fitratning yuqorida tilga olingan oila haqidagi kitobining asosiy qismi ayolga, uni qanday hurmat qilish va unga qanday munosabatda bo‘lishga bag‘ishlangan. O‘sha kitobda “Qiz bolalar o‘qishi kerakmi?”, degan band ham bor. Muallifga ko‘ra, insonning intellektual holati, oladigan ta’limi ko‘p jihatdan ayollarga, onalarga bog‘liq. Yozishicha, erkak tirikchilik uchun yegulik-ichgulik topish bilan band, ayol esa erkakdan ko‘ra ma’lumotliroq bo‘lishi shart, chunki u, asosan, bolalar bilan shug‘ullanadi.

Ayollar ta’limi rivojlanganini va ayollar maktabi bo‘lganini, ularda ayollar ta’lim olib, Sharq mumtoz adabiyoti o‘qitilganini bilamiz. To‘g‘ri, biz texnikaga oid fanlar haqida gapirayotganimiz yo‘q, lekin shunday bo‘lsa-da, ayollar ta’lim olgan. Bu – bizning madaniy merosimiz. Umuman, bu nafaqat O‘zbekistonning, qolaversa, barcha xalqlarning merosi, chunki bu intellektual muhit mavjudligini, ongi va intilishlari qanday bo‘lganini ko‘rsatadi. Masalan, Behbudiy hajga borganida Bayrut universitetini ziyorat qiladi. Hayratga tushib, “Ey Xudo, bularning laboratoriyalarini qaranglar”, deb yozadi. U kimyo laboratoriyasi bilan tanishadi. “Bu yerda qanday talabalar va qizlar o‘qiyotganini qarang! Yutuqlar ham shuncha bo‘ladimi! Nega bu musulmon mamlakatida bunday universitet bor, biz ham musulmon mamlakatimiz, lekin Turkistonda oliy darajadagi birorta ham, ha-ha, birorta ham ta’lim muassasasi yo‘q”. Turli mamlakatlardagi ma’rifatparvarlik harakatlariga xos bo‘lgan o‘ziga xos xususiyatlar bilan bir qatorda umumiy xususiyatlar ham mavjud bo‘lgan. Bu Turkiston jadidlari faoliyatida ham o‘z ifodasini topdi. Ular siyosiy qoloqlikka, mavjud tuzumning ijtimoiy-huquqiy ko‘rinishi va kamchiliklariga qarshi kurashdilar, ma’rifatni shakllantirish, ozodlik, ma’naviy madaniyatni boyitish, xalq ommasi manfaatlarini himoya qilish, turmush farovonligini oshirish tarafdori edilar.

Turkiston ilg‘or ziyolilarining eng muhim yutug‘i xalq ta’limi tizimi hukmron mafkuradan xoli, shuningdek, ilg‘or g‘oyalarni tarqatishning eng muhim vositasi sifatida milliy matbuot asoslarini yaratish bo‘ldi. Bir tomondan, ular Yevropa ilmiy-texnikaviy tafakkuri, madaniyati yutuqlarini, iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy hayot me’yorlarini targ‘ib qildilar. Boshqa tomondan, o‘tmishni qayta tiklashga, shariat talablariga zid bo‘lgan burjua odatlarining kirib kelishiga qandaydir tarzda qarshilik ko‘rsatish istagini uyg‘otishga, islom tarixiga qiziqish uyg‘otishga harakat qildilar.

Jadidlar dunyoviy ta’lim va bilimli mutaxassislar tayyorlash zarurligi haqida gapirar ekan, o‘z fikrlarini Qur’on va hadislardan izladi va tasdiqlashdi, o‘z matnlariga Turkistondagi ijtimoiy, ma’naviy va iqtisodiy taraqqiyot ehtiyojlariga javob beradigan ma’no berdilar. Muxtasar aytganda, millat istiqboli uchun kurashgan ma’rifatparvar bobolarimiz sa’y-harakati zamirida huquqiy demokratik davlat uchun asos bo‘ladigan yuksak g‘oyalar poydevori mujassam edi. Aynan jadidlarning say-harakatlari tufayligina xotin-qizlarimiz erkinlikka chiqq oldi, nafaqat boshlang‘ich ta’lim balki oliy ta’lim olishga ham ega bo‘ldi.

Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda xotin-qizlar uchun amalga oshirilayotgan barcha islohotlar va ularga berilgan barcha imkoniyatlarning asosi, poydevori bu jadidlarning harakatlarida edi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Ayniy S., Buxoro inqilobi tarixi uchun materiallar, Moskva, 1926;
2. Risqulov Toshkent, Revolyusiya i korennoye naseleniye, Toshkent, 1926;
3. Revolyusiya v Sredney Azii glazami musulmanskix bolshevikov, Oksford, 1985
4. Cho‘lpon, Asarlar, 1-2-jildlar, Toshkent. 1994;
5. Qizi, Y. L. U. (2024). THE ACTIVITIES OF UBAYDULLOKHOJA ASADULLOKHOJAYEV, AN EARLY UZBEK LAWYER, IN THE JADIDIST MOVEMENT. International Journal Of History And Political Sciences, 4(03), 48-50.
6. Yusupova, L. (2024). THE ROLE OF MUNAVVARQORI ABDURASHIDKHANOV IN THE JADIDIST MOVEMENT. Science and innovation, 3(C1), 94-97.
7. Yusupova, L. (2023). JADIDCHILIK HARAKATI VA JADID ADABIYOTINING YUZAGA KELISHI. Наука и технология в современном мире, 2(20), 92-94.
8. АБДУЛҲАЙ, Г. ТУРКИСТОН МАТБУОТИДА ЯНГИ ДАВЛАТ ХУСУСИДАГИ МУНОЗАРАЛАР (1918-1924 ЙИЛЛАР). INFOLIB: ИНФОРМАЦИОННО-БИБЛИОТЕЧНЫЙ ВЕСТНИК Учредители: Общество с ограниченной ответственностью с участием иностранного капитала" E-LINE PRESS", (1), 56-60.
9. Urazaliyeva, A. G., & Fotima, X. (2024). TURKISTON QO‘RBOSHILAR HARAKATI VA ULARNING FAOLIYATI. TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI, 4(1), 5-10.
10. Urazaliyeva, A. G., & Aziza, P. (2024). FARG‘ONA VODIYSIDAGI ISTIQLOLCHILIK HARAKATLARI VA UNING TARIXIY AHAMIYATI. IJTIMOIIY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI, 4(1), 12-15.
11. Абдулхай, Г. У. (2020). ТУРКИСТОН АССР: ҚАНДАЙ ДАВЛАТ БЎЛИШИ КЕРАК ЭДИ?. ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ, 3(1).
12. Iskandar, O. (2022). OPPORTUNITIES FOR THE DEVELOPMENT OF PILGRIMAGE TOURISM IN OUR REPUBLIC. CONTEMPORARY ART AND CULTURE, (ISSUE 11), 47-49.